



UDK: 159.9

Surayyo RUSTAMOVA,

Katta o'qituvchi, PhD, Fan va texnologiyalar universiteti, Toshkent, O'zbekiston

E-mail: s.rustamova@usat.uz ORCID: 0009-0002-1489-3623

USAT dotsenti v.b., PhD R.Rasulov taqrizi asosida

ONKOLOGIK KASALLIKLARDA BEMORLAR PSIXOLOGIYASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada onkologik kasalliklarga chalingan bemorlarning psixologik holati, ularning kasallikka bo'lgan munosabati, ruhiy o'zgarishlar dinamikasi hamda psixoterapevtik yondashuvlarning ahamiyati tahlil qilingan. Bemorlarning qo'rquv, umidsizlik, inkor, g'azab, tushkunlik va qabul qilish bosqichlari psixologik nuqtayi nazardan o'rganilgan. Shuningdek, ijtimoiy qo'llab-quvvatlov, oilaviy muhit va tibbiy-psixologik yordamning sog'ayish jarayoniga ta'siri ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: onkologik kasalliklar, bemor psixologiyasi, psixoterapiya, stress, ijtimoiy qo'llab-quvvatlov, motivatsiya, ruhiy barqarorlik.

PSYCHOLOGY OF PATIENTS WITH ONCOLOGICAL DISEASES

Annotation

This article analyzes the psychological state of patients with oncological diseases, their attitude towards the illness, the dynamics of mental changes, and the importance of psychotherapeutic approaches. The stages of fear, hopelessness, denial, anger, depression, and acceptance in patients are examined from a psychological perspective. Additionally, the impact of social support, family environment, and medical-psychological assistance on the recovery process is demonstrated.

Keywords: oncology, patient psychology, psychotherapy, stress, social support, motivation, emotional stability.

ПСИХОЛОГИЯ ПАЦИЕНТОВ С ОНКОЛОГИЧЕСКИМИ ЗАБОЛЕВАНИЯМИ

Аннотация

В данной статье анализируется психологическое состояние пациентов с онкологическими заболеваниями, их отношение к болезни, динамика психических изменений, а также значение психотерапевтических подходов. Психологической точки зрения рассмотрены стадии страха, отчаяния, отрицания, гнева, депрессии и принятия у пациентов. Кроме того, показано влияние социальной поддержки, семейной среды и медико-психологической помощи на процесс выздоровления.

Ключевые слова: онкологические заболевания, психология больного, психотерапия, стресс, социальная поддержка, мотивация, эмоциональная устойчивость.

Kirish. Onkologik kasalliklar zamonaviy tibbiyotning eng dolzarb va murakkab muammolaridan biri bo'lib, ular nafaqat jismoniy, balki ruhiy, ijtimoiy va ma'naviy jihatdan ham inson hayotiga chuqur ta'sir ko'rsatadi. So'nggi yillarda tibbiyotning rivojlanishiga qaramay, saraton bilan og'rikan bemorlar sonining ortib borayotgani jamiyatni chuqur tashvishga solmoqda. Bu holatda bemorning psixologik holatini o'rganish va unga psixologik yordam ko'rsatish, davolanish jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda. Saraton kasalligiga chalingan bemorlarda ruhiy holatning o'zgarishi faqat tashxis qo'yilgan paytdagina emas, balki davolanish jarayonining turli bosqichlarida ham turlicha kechadi. Kimyoterapiya, jarrohlik amaliyotlari, uzoq muddatli reabilitatsiya – bularning barchasi psixik bosimni kuchaytiradi. Shu bois, bemorlar uchun maxsus psixologik treninglar, qo'llab-quvvatlovchi suhbatlar, guruhli terapiyalar tashkil etish zamonaviy tibbiyotning muhim yo'nalishiga aylanmoqda.

Rahmatova D. "Zamonaviy tibbiy psixologiyada yangi yondashuvlar" kitobida muallif tibbiyotda psixologik yondashuvning innovatsion shakllarini tahlil qiladi. U, xususan, guruhli terapiya, emotsional razryad usullari, stressni yengish texnikalari haqida so'z yuritadi. Shaxsiy munosabatim shundan iboratki, bunday usullar nafaqat bemorga, balki tibbiyot xodimlarining ruhiy charchoqlarini kamaytirishga ham xizmat qiladi. Bu jarayon ikki tomonlama psixologik mulqotni mustahkamlaydi. Bundan tashqari, onkologik

kasallik bilan kurashayotgan bemorlarning ruhiy holatida diniy e'tiqod, ma'naviyat va hayot falsafasining o'rni alohida ahamiyatga ega. Hayotning ma'nosini qayta anglash, taqdirni qabul qilish, ijobiy fikrlashga o'tish – bular insonni ruhiy jihatdan barqaror qiladi. Psixologiya fanining zamonaviy yondashuvlari shuni ko'rsatadiki, e'tiqod va umidni saqlagan bemorlarning davolanish natijalari yuqori bo'ladi

Shunday qilib, ushbu mavzuning dolzarbligi shundaki, onkologik kasalliklarni faqat tibbiy nuqtai nazardan o'rganish yetarli emas. Bemorlarning ruhiy, emotsional, ma'naviy holati, ularning ijtimoiy muhit bilan o'zaro aloqasi, oilaviy qo'llab-quvvatlash tizimi ham chuqur tahlilni talab qiladi. Bu esa psixologiya, tibbiyot va sotsiologiya fanlari kesishmasida yondashishni zarur etadi.

Metodologiya. Onkologik kasalliklarga chalingan bemorlarning psixologik holatini o'rganish, ularda stress, depressiya, hayotga bo'lgan ishonch, motivatsiya va moslashuv jarayonlarini aniqlash maqsadida kompleks psixologik tahlil usullaridan foydalanildi. Metodologiya, bir tomondan, empirik kuzatish va so'rovnoma natijalariga asoslangan bo'lsa, boshqa tomondan, klinik psixologiya va sotsiologiya fanlarining o'zaro integratsiyasiga tayanadi. Tadqiqotning nazariy asosi sifatida zamonaviy tibbiy psixologiya, kognitiv-emotsional nazariya, stressni boshqarish modeli va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash konsepsiyasi tanlandi.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi onkologiya markazlarida davolanayotgan 120 nafar

bemor ishtirokida olib borildi. Ishtirokchilar ikki guruhga bo'lingi: birinchi guruhda psixologik qo'llab-quvvatlovchi dasturga jalb etilgan bemorlar, ikkinchisida esa faqat standart tibbiy muolaja olayotganlar mavjud edi. Tadqiqotda suhbat, so'rovnomma, kuzatuv, psixometrik test va intervyu metodlari qo'llanildi. Har bir metod o'ziga xos maqsadga xizmat qiladi – ya'ni, bemorning ruhiy holati, emotsional barqarorlik darajasi, stressga bardoshlilik va ijtimoiy munosabatlar sifatini baholash. Onkologik bemorlarning psixologiyasini o'rganishda Gans Selye tomonidan ishlab chiqilgan stress nazariyasi asosiy metodologik yo'nalish sifatida tanlandi. Bu nazariya insonning og'ir kasallikka bo'lgan tabiiy reaksiyasini uch bosqichda – “shok”, “qarshi turish” va “holdan toyish” shaklida tavsiflaydi. Mazkur model asosida bemorning kasallikka nisbatan psixologik moslashuv jarayoni tahlil qilindi [1].

Bundan tashqari, tadqiqotda Bek depressiya shkalasi (BDI-II), Spielbergerning tashvish darajasi testi, va Rotterning ijtimoiy ishonch o'lchovi kabi xalqaro testlar qo'llanildi. Ushbu testlar bemorning ichki ruhiy holatini, tashvish va umidsizlik darajasini aniqlash imkonini berdi. Shuningdek, natijalar mahalliy sharoitga moslashtirilgan psixologik testlar bilan taqqoslandi. Bunday yondashuv tibbiyot psixologiyasida madaniy kontekstni hisobga olish imkonini berdi [2].

Karimova G.M. “Amaliy psixodiagnostika” asarida muallif test metodikalarini qo'llashda milliy va madaniy xususiyatlarning hisobga olinishi zarurligini ta'kidlaydi. Biz bu fikrni to'liq qo'llab-quvvatlaymiz, chunki xalqaro mezonlar bilan o'lchangan natijalar har doim ham milliy ruhiy xususiyatlarga mos kelavermaydi. Ayniqsa, o'zbek bemorlarida e'tiqod, or-nomus va oilaviy qo'llab-quvvatlash kabi psixologik omillar asosiy rol o'ynaydi.

Tadqiqot jarayonida yarim tuzilgan intervyu metodidan keng foydalanildi. Bu usul bemorlarning his-tuyg'ularini erkin ifodalashga imkon yaratdi. Intervyular orqali bemorlarning hayotga munosabati, o'z kasalligini qanday qabul qilgani, oila va jamiyatdan qanday yordam olayotgani o'rganildi. Intervyu natijalari tahlil qilinganda, ijobiy fikrlashga ega bemorlar davolanishga nisbatan faolroq munosabatda bo'lishlari aniqlangan. Bu jarayonda psixologik kuzatuv metodi ham qo'llandi. Kuzatuv bemorning tana harakati, yuz ifodasi, so'zlashuv toni va emotsional reaksiyalariga asoslandi. Bu usul orqali depressiv, agressiv yoki umidsiz kayfiyatdagi bemorlarni aniqlash, ularga individual psixologik yondashuvni ishlab chiqish imkonini berdi [3].

To'xtayeva S. “Klinik kuzatuv metodikasi va tibbiy psixologiya” asarida muallif kuzatuv metodining klinik sharoitdagi afzalliklarini tahlil qiladi. Unga ko'ra, bemorning og'zaki bayonidan ko'ra, uning harakatlari va tana tili ruhiy holatni aniqroq ifoda etadi. Menimcha, aynan shu usul onkologik psixologiyada eng ishonchli ma'lumot manbai bo'la oladi, chunki ko'plab bemorlar o'z his-tuyg'ularini so'z bilan ifoda etishdan qochishadi.

Tadqiqotda yana bir muhim yo'nalish – psixoterapevtik intervensiya metodini amaliyotga tadbiiq etishdan iborat bo'ldi. Bemorlar bilan olib borilgan “qabul qilish va majburiyat terapiyasi” (ACT), “kognitiv qayta baholash” (CBT) va “emotsional ekspressiya” mashg'ulotlari natijasida ular orasida ijobiy kayfiyat, hayotdan umid va motivatsiya darajasi oshgani kuzatildi [4]. Hayes S.C. “Acceptance and Commitment Therapy” asarida muallif insonning og'ir hayotiy holatlarda o'z fikrini qabul qilish, hissiy og'riqni anglash va ijobiy yo'nalishga o'tish mexanizmlarini batafsil bayon qiladi. Biz bu usulni onkologik bemorlar uchun eng mos deb hisoblaymiz, chunki ACT terapiyasi insonni real holatni qabul qilib, uni umid va sabr bilan yengishga o'rgatadi. Bu usul tibbiyotda “ruhiy immunitet”ni mustahkamlovchi vosita sifatida ishlaydi.

Shuningdek, tadqiqotda sotsiometrik tahlil usuli yordamida bemorlarning jamiyat bilan o'zaro aloqasi, yaqinlari va tibbiyot xodimlariga bo'lgan ishonch darajasi o'lchandi. Ushbu ma'lumotlar bemorning ijtimoiy moslashuvi, o'zini jamiyatda tutish xatti-harakatlari va ruhiy holat o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatdi.

Metodologik yondashuv sifatida, tadqiqotda mixt (aralash) metodlar – ya'ni, sifat (qualitative) va miqdoriy (quantitative) tahlil uyg'un holda qo'llanildi. Maqsad – faqat raqamli statistik natijalar emas, balki inson ruhiyatining murakkab emotsional mexanizmlarini chuqur anglash edi. Shu jihatdan, tadqiqot fenomenologik yondashuv asosida olib borildi [5].

Creswell J.W. “Research Design: Qualitative, Quantitative and Mixed Methods Approaches.” asarida muallif aralash metodning ilmiy tadqiqotdagi afzalliklarini asoslaydi. Unga ko'ra, insoniy kechinmalarni faqat son bilan o'lchab bo'lmaydi – ularni tushunish, his qilish va talqin etish zarur. Shaxsiy fikrimcha, onkologik bemorlar ruhiyatini o'rganishda bu yondashuv eng maqbul yo'l, chunki u insonni raqam emas, hayotiy voqeelik sifatida ko'radi. Natijada, tadqiqot metodologiyasi onkologik kasallikka chalingan bemorlarning ruhiy holatini har tomonlama o'rganishga, ularning psixologik himoya mexanizmlarini aniqlashga va davolanishda ruhiy omillarning o'rnini belgilashga qaratilgan bo'ldi. Ushbu yondashuv bemorlarni nafaqat davolash, balki ularning hayot sifatini yaxshilashda ham muhim ilmiy asos yaratdi.

Natijalar. Onkologik kasalliklarga chalingan bemorlarning ruhiy holati kasallik bosqichiga, davolanish turiga, shaxsning ijtimoiy-madaniy muhitiga va oila tomonidan ko'rsatilgan qo'llab-quvvatlash darajasiga bevosita bog'liq. Tadqiqotda ishtirok etgan 120 nafar bemorning 62 foizi dastlabki tashxis paytida kuchli stress va depressiya holatida bo'lgani aniqlandi. Shuningdek, 48 foiz bemor o'z kasalligini inkor etish yoki unga ishonmaslik holatini namoyon qilgan. Bu psixologik himoya mexanizmlarining tabiiy namunasidir.

Psixologik kuzatuvlar asosida aniqlanishicha, bemorlarning 70 foizida “umid sindromi” deb ataluvchi ruhiy holat kuzatildi, ya'ni ular davolanish jarayonida bir paytning o'zida umid va qo'rquvni birgalikda his etishgan. Bu holat Gans Selye tomonidan ta'riflangan stressning ikkinchi bosqichi – “qarshilik” fazasiga mos keladi [6].

Selye H. “The Stress of Life.” asarida muallif stressni organizmning o'zini himoya qilishga qaratilgan tabiiy mexanizm sifatida izohlaydi. Bizningcha, aynan onkologik bemorlar misolida bu mexanizm yaqqol namoyon bo'ladi: ular ichki kuchlarini safarbar etib, hayot uchun kurashadi. Shaxsiy kuzatishlarimga ko'ra, bunday “ruhiy qarshilik” davolanishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi, chunki u insonda yashashga ishonchni mustahkamlaydi.

Tadqiqot davomida Bek depressiya shkalasi (BDI-II) natijalariga ko'ra, 43 foiz bemorda o'rta darajadagi depressiya, 25 foizida esa og'ir depressiv holat qayd etildi. Ammo psixologik maslahat va guruhli qo'llab-quvvatlash dasturlaridan so'ng bu ko'rsatkichlar mos ravishda 27 foiz va 13 foizgacha kamaygani aniqlandi. Bu natijalar psixologik intervensiyaning samaradorligini tasdiqlaydi.

Rahmatova D. “Zamonaviy tibbiy psixologiyada yangi yondashuvlar.” asarida muallif guruhli terapiya insonda “yolg'izlik hissi”ni kamaytirishini ta'kidlaydi. Biz bu fikrga to'liq qo'shilamiz, chunki saraton bemorlari ko'pincha o'zlarini jamiyatdan ajralgan his qilishadi. Guruhli muloqot esa ularga hayotning davom etishini his qilish imkonini beradi. Bu ijtimoiy moslashuv uchun ham muhim. Tadqiqot natijalari shuningdek, oilaviy qo'llab-quvvatlash omili onkologik bemorlar psixologiyasida markaziy o'rin tutishini ko'rsatdi. Oila a'zolarining bemorga nisbatan mehribon, sabrli va ishonchli munosabati bemorning ruhiy tiklanish jarayonini tezlashtiradi. Statistik tahlilga ko'ra, oilasidan kuchli qo'llab-quvvatlovchi

bemorlar orasida davolanishga ijobiy javob berganlar 1,8 baravar ko'p. Bu holat sotsiopsixologik yordamning amaliy ahamiyatini yanada kuchaytiradi. Zokirova N. "Oilaviy psixologiya." asarida muallif oila a'zolarining bemor ruhiyatiga ta'sirini tahlil qiladi. U oilani insonning "psixologik immun tizimi" deb ataydi. Bizningcha, bu juda to'g'ri ta'rif. Chunki onkologik kasallikda oila qo'llab-quvvatlashi – bemorning ruhiy kuchini tiklovchi eng muhim omildir. Oila a'zolari bemor bilan birgalikda ruhiy barqarorlikni saqlashni o'rganishlari lozim. Natijalar tahlili shuni ham ko'rsatdiki, diniy va ma'naviy qadriyatlar bemorlarning ruhiy tiklanishida sezilarli o'rin egallaydi. So'rovnomada ishtirokchilarining 67 foizi e'tiqod va ma'naviy kuch ularni ruhiy tushkunlikdan olib chiqqanini bildirdi. Ularning so'zlariga ko'ra, "hayotning ma'nosini qayta anglash" ularda ichki osoyishtalikni tiklagan. Bu natija ma'naviy psixoterapiya yo'nalishidagi ilmiy yondashuvlar bilan hamohangdir. Shaxsning ruhiy tiklanishida e'tiqod, ibodat, ijobiy niyat va sabr tuyg'ulari muhim motivatsion omil bo'lib xizmat qiladi.

Muhokama. Onkologik kasalliklarga chalingan bemorlarning psixologik holatini o'rganish ularning davolanish natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatadigan eng muhim omillardan biridir. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, bemorlar tashxis qo'yilgan birinchi haftalardan boshlab kuchli ruhiy stress, hayot uchun qo'rquv va o'zligini inkor qilish holatlarini boshdan kechiradilar. Ushbu jarayon inson ruhiyatining tabiiy himoya mexanizmlaridan biri bo'lsa-da, uzoq davom etgan taqdirda ularning sog'ayish motivatsiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Psixologik tahlillar shuni ko'rsatdiki, onkobemorlarning aksariyatida o'z hayotini davom ettirishga bo'lgan ishonch darajasi pasayadi, natijada immun tizimi zaiflashib, davolanish jarayoni sustlashadi.

Biz bu holatni bemorning ruhiy kurashini inson irodasining eng yuqori sinovi sifatida baholaymiz. Har bir bemor uchun tashxis – bu nafaqat tibbiy, balki falsafiy sinovdir. Aynan shu bosqichda shaxs o'z hayotining ma'nosi, oila va jamiyatdagi o'rini qayta anglay boshlaydi. Shu sababli psixologik qo'llab-quvvatlash tibbiy muolajalar bilan bir qatorda, hayotiy qadriyatlarni tiklash jarayonining markazida turadi.

Onkologik kasalliklarga chalingan bemorlar orasida depressiya va xavotir darajasi yuqoriligi ilmiy jihatdan isbotlangan. Bu holatning ildizlari ko'pincha ijtimoiy omillarga –

ADABIYOTLAR

1. Selye H. The Stress of Life. – New York: McGraw-Hill, 1976. – P. 47.
2. Karimova G.M. Amaliy psixodiagnostika. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. – B. 64.
3. To'xtayeva S. Klinik kuzatuv metodikasi va tibbiy psixologiya. – Toshkent: Tibbiyot nashriyoti, 2021. – B. 119.
4. Hayes S.C. Acceptance and Commitment Therapy. – New York: Guilford Press, 2011. – P. 78.
5. Creswell J.W. Research Design: Qualitative, Quantitative and Mixed Methods Approaches. – Los Angeles: SAGE Publications, 2018. – P. 94.
6. Selye H. The Stress of Life. – New York: McGraw-Hill, 1976. – P. 91.
6. Rasulov, R. "The importance of education and upbringing in forming political socialization in the worldview of youth." Академические исследования в современной науке 3, no. 48 (2024): 124-132.
7. Khaydarova M., Rasulov R. Positive and negative consequences of the globalization process //International Conference on Arts, Society & Humanities. – 2025. – T. 1. – №. 3. – C. 35-39.
8. Rasulov R.O. The importance of youth-oriented structures established in the country in the political socialization of youth Vol. 3 No. 12 (2024): International journal of european research output (IJERO).
9. Rasulov R.O. The Essence of Political Socialization Processes and their Role in Social Development //Spanish Journal of Innovation and Integrity. – 2024. – T. 37. – C. 32-41.
10. Rasulov R.O. Yoshlar bilan ishlash tizimida ma'naviy-mafkuraviy omillarning yoshlar ongiga ta'siri //International Journal of Scientific Research. – 2023. – T. 2. – C. 147-152.
11. Rasulov R.O. Cultural basics of education and the role of youth in it. Philosophy And Life International Journal. ISSN 2181-9505. Doi jurnal 10.26739/2181-9505 [Электронный ресурс].
12. Rasulov R.O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining yoshlar dunyoqarashi siyosiy ijtimoiylashuviga ta'siri //«ACTA NUUZ». – 2025. – T. 1. – №. 1.4. 1. – C. 169-171.
13. Tursunov O., Rasulov R. O. Zamonaviy dasturlash muhitida arifmetik amallarni avtomatlashtirish: C# WinForms asosida kalkulyator modeli //Academic Research in Modern Science, International scientific-online conference. – 2023.
14. Rasulov R. Zamonaviy kommunikatsion texnologiyalarning jamiyatdagi mafkuraviy jarayonlarga bo'lgan ta'siri //«ACTA NUUZ». – 2025. – T. 1. – №. 1.12. – C. 176-179.
15. Rasulov R. Raqamli transformatsiya davrida siyosiy mafkuralarning kelajakdagi shakllanish imkoniyatlari //«ACTA NUUZ». – 2026. – T. 1. – №. 1.2. – C. 163-165.